

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

ABDULXAYEV XURSHED G‘AFUROVICH

**PUSHTALARGA HAJMIY ISHLOV BERADIGAN MASHINA
ISHLAB CHIQUISHNING ILMIY-TEXNIK
YECHIMLARI**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Gulbahor – 2023

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Abdulxayev Xurshed G‘afurovich

Pushtalarga hajmiy ishlov beradigan mashina ishlab chiqishning ilmiy-texnik yechimlari 3

Абдулхаев Хуршед Гафурович

Научно-технические решения разработки машины для объемной обработки гребней 25

Abdulkhaev Khurshed Gafurovich

Scientific and technical solutions for the development of a volumetric ridge processing machine 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 51

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

ABDULXAYEV XURSHED G‘AFUROVICH

**PUSHTALARGA HAJMIY ISHLOV BERADIGAN MASHINA
ISHLAB CHIQUISHNING ILMIY-TEXNIK
YECHIMLARI**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/T313 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi www.uzmei.uz va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

To‘xtaqo‘ziyev Abdusalim
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Imomqulov Qutbiddin Boqijonovich
texnika fanlari doktori, professor

Xudayarov Berdirasul Mirzayevich
texnika fanlari doktori, professor

Turdaliyev Voxijon Maxsudovich
texnika fanlari doktori, professor


Yetakchi tashkilot:

**Qishloq xo‘jaligi texnikasi va texnologiyalarni
sertifikatlash va sinash markazi**

Dissertatsiya himoyasi Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/13.05.2020.T.112.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «10» mart soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 110801, Toshkent viloyati, Yangiyo‘l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko‘chasi, 41-uy. Tel.: (+99870) 601-07-04, faks: (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxona@uzmei.uz).

Dissertatsiya bilan Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (470 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 110801, Toshkent viloyati, Yangiyo‘l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko‘chasi, 41-uy. Tel.: (+99870) 601-07-04, faks: (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxona@uzmei.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «21» fevral kuni tarqatildi.
(2023 yil «21» fevral dagi № 29 raqamli reyestr bayonnomasi).



M. T. Toshboltayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

A. A. Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.d., k.i.x.

K. K. Nuriyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisining o‘rinbosari, t.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda pushtalarga ishlov berishning resurstejamkor texnologiyalari va uni amalga oshiradigan texnika vositalarini ishlab chiqish va qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. «Dunyo miqyosida qishloq xo'jalik ekinlarini pushtalarda yetishtirish har yili o'rtacha 120 mln. gektar maydonni tashkil etishini hisobga olsak»¹, ish sifati va unumi yuqori hamda energiya-resurstejamkor pushtalarga ekish oldidan ularning butun profili bo'yicha to'liq ishlov berishni ta'minlaydigan mashinalarni yaratish, ishlab chiqarish va joriy etish zarurati paydo bo'lmoqda. Shu bois bunday ilmiy-texnik muammoning yechimini topishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda pushta olingan dalalarni ekishga tayyorlashning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarining yangi avlodlarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirishning ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, ayniqsa pushtalar profilini buzmaganda ularga talab darajasida va to'liq ishlov beradigan energiya-resurstejamkor mashinalar konstruksiyalarini ishlab chiqish, ularning texnologik ish jarayonlarini va ish organlarining parametrlarini asoslash bo'yicha maqsadli izlanishlarni olib borish dolzarb ilmiy-texnik muammolardan hisoblanadi.

Respublikamizda turli sohalarda ishlab chiqarishni rivojlantirish, energiya-tejamkorlikni ta'minlash uchun mashina va qurilmalarning yangi turlarini yaratish hamda takomillashtirish bo'yicha keng miqyosda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, xususan qishloq xo'jaligi uchun yuqori samarali va resurstejamkor mashinalarning yangi avlodlarini ishlab chiqish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «... milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan siyosatni davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, ... sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish, ... sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish»² kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, pushtalarga ularning butun profili bo'yicha sifatli ishlov beradigan, texnologik jihatdan takomillashtirilgan mashina ishlab chiqish va bunda yuqori ish unumi va sifati hamda energiya-resurstejamkorlikka erishishni ta'minlash bugungi kundagi muhim muammolardan hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiya-

¹ <http://www.nrcs.usda.gov>; <http://cropwatch.unl.edu/tillage/ridge>;

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

sini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonlari, 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-son «Qishloq xo'jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlani-shining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Pushtalarga ishlov berish texnologiyalari va texnika vositalarini yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, USDA-ARS National Soil Dynamics Laboratory, Institute of Agriculture and National Resources (AQSH), University Hohenheim (Germaniya), Wageningen University & Research Center (Niderlandiya), University of Ljubljana (Sloveniya), Agricultural University (Bolgariya), Ataturk University (Turkiya), Sankt-Peterburg davlat agrar universiteti, Chelyabinsk qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti, Kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti, Uzoq Sharq qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti, Ijevsk davlat qishloq xo'jaligi akademiyasi, Qozon davlat agrar universiteti, Sibir qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya Federatsiyasi), Bioresurslar va tabiatdan foydalanish milliy universiteti, Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti (Ukraina), "Belorus milliy akademiyasining qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-amaliy markazi" Respublika unitar korxonasi (Belorus Respublikasi), National Agricultural Research Center (Япония), Merredin Dryland Research Institute (Avstraliya), Power Engineering College of Agricultural Engineering, University of Agricultural Sciences (Hindiston)да олиб борилмоқда.

Pushtalarga ishlov berishga oid jahonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: pushta olish va bir yo'la uning yuzasiga ishlov berishni qo'shib bajaradigan kultivator va qurilmalar (Department of Agricultural Machinery, (Turkiya), «Belorus davlat qishloq xo'jaligi akademiyasining qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-amaliy markazi» Respublika unitar korxonasi (Belorus Respublikasi)), pushta ustiga ishlov berishga mo'ljallangan yumshatkich va yulduzcha tirmali seksiyalardan tashkil topgan qurilma («Hatzenbichler» firmasi, Avstriya) va faol ish organlariga ega mashinalar (Belgiya «Grimme» firmasi), tishlarning ta'siri ostida pushtalar yuza qatlaminin ma'lum chuqurligigacha ishlov berishga mo'ljallangan rotorli mashinalar («Baselier» firmasi, Niderlandiya) ishlab chiqilgan; pushtalarga ishlov beradigan

³ Soil and tillage research (China), 2000-2014., Weed. Sciences (USA), 1998-2012., Rivista di Agronomic (Italy), 2005-2014., 2000-2021., European journal of agronomy (Italy), 2009-2013., Outlooks on Pest Management (USA) 2000-2015., Principles of Farm Machinery (USA), 2010-2015.

qurilma va mashinalarning faol yoki passiv ish organlarining o‘zaro joylashishi, ularning ishlov beradigan material bilan o‘zaro ta’sirlashish qonuniyatlari aniqlangan, pushta tuprog‘iga ishlov berishning nazariy asoslari yaratilgan.

Lekin ta’kidlangan tadqiqotlarda pushtalarga ekish oldidan ularning butun profili bo‘yicha to‘liq va bir tekis ishlov berish texnologik jarayonlari hamda ularni amalga oshiradigan texnika vositalarini ishlab chiqish muammolari yetarlicha o‘rganilmagan va hal etilmagan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Pushtalarga ekish oldidan ishlov beradigan mashina va qurilmalarni yaratish, ularning texnologik ish jarayonlari va parametrlarini asoslash hamda takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar xorijda W.Thomas (AQSH), H.Hosokawa, K.Adachi, K.Itoh, M.Matsuzaki (Yaponiya), C.Ahmet, O.Ismail (Turkiya), R.Bernik, F.Vučajnk (Sloveniya), G.A.Loginov, V.I.Vinogradov, V.M.Zapevalov, V.V.Xadanovich, K.A.Pshechenkov, A.V.Zuyev, A.N.Makushenko, I.P.Shostakovskiy, V.N.Ovsyukov, V.M.Kudryavsev, V.P.Pervushin, M.Z.Salimzyanov, N.G.Kasimov, A.A.Gaffarov, M.S.Chekusov (Rossiya Federatsiyasi), I.Z.Gan-Lovkis (Belorus Respublikasi) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar bilan respublikamizda G.M.Rudakov, Ye.I.Ponomarev, S.G.Say, A.Qoraxonov, N.Yunusov, A.B.Tukubayev, A.To‘xtaqo‘ziyev va boshqalar shug‘ullanishgan.

Bu tadqiqotlarda pushtalarni ekishga tayyorlash texnologiyalari va texnika vositalari hamda ish organlarini yaratish, ularning parametrlarini asoslash va maqbul qiymatlarini nazariy va tajribaviy usullar orqali aniqlash bo‘yicha qimmatli natijalar olingan. Ammo pushtalarga ekish oldidan ularning butun profili bo‘yicha to‘liq, ya’ni hajmiy ishlov berishni ta’minlaydigan mashina ishlab chiqish, uning ish organlari belgilangan chuqurlikka botishi va shu chuqurlikda bir tekis yurishi hamda kam energiya sarflagan holda yuqori ish sifatini ta’minlashi kabi ilmiy-texnik muammolar kompleks tarzda tadqiq etilmagan va tizimli ravishda yechilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining QXA-3-011 «Disksimon va rotatsion ish organlari asosida tejamkor, ish unumi va sifati yuqori tuproqqa ishlov berish mashinalarini yaratish» loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi pushtalarga ekish oldidan ularning butun profili bo‘yicha to‘liq, ya’ni hajmiy ishlov beradigan mashina ishlab chiqish va uning ish ko‘rsatkichlari hamda samaradorligini oshirish yo‘llarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

pushtalarga ekish oldidan ishlov berish texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarini ishlab chiqish yuzasidan ilgari bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish;

O‘zbekistonning tuproq-iqlim sharoitlariga mos keladigan pushtalarga ekish oldidan hajmiy ishlov beradigan mashinaga qo‘yiladigan agrotexnika talablarini va

uning konstruksiyasini ishlab chiqish;

pushtalarga ekish oldidan ularning butun profili bo'yicha hajmiy ishlov beradigan mashinaning texnologik ish jarayoni va parametrlarini asoslashga doir nazariy va tajribaviy izlanishlarni o'tkazish;

o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida pushtalarga ekish oldidan hajmiy ishlov beradigan mashinaning tajriba nusxasini ishlab chiqish;

mashina ish organlarining belgilangan ishlov berish chuqurligiga botishi va shu chuqurlikda bir tekis harakatini ta'minlashga doir tadqiqotlarni olib borish;

mashina tajriba nusxasining dala sinovlarini o'tkazish, pushta egatlari, yonbag'irlari va tepalariga ishlov berish ko'rsatkichlarini amalda qo'llanib kelinayotgan mavjud texnika vositalari ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;

mashina tajriba nusxasining pushtalarga ekish oldidan hajmiy ishlov berish texnologik jarayonlarini bajarishdagi agrotexnik, texnik-ekspluatatsion ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqot obyekti sifatida pushtalar olingan dalalar, ular tuprog'ining fizik-mexanik xossalari, pushtalarga ekish oldidan hajmiy ishlov beradigan mashina va uning ish organlari olingan.

Tadqiqotning predmeti. Pushtalarga ekish oldidan hajmiy ishlov beradigan mashina ish organlarining tuproq bilan o'zaro ta'sirlashishini ifodalaydigan matematik modellar va ularning parametrlarini aniqlash imkonini beradigan analitik bog'lanishlar, mashina agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlarining uning ish organlari parametrlari va agregat harakat tezligiga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlari.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya tadqiqotlarini o'tkazishda nazariy mexanika, dehqonchilik mexanikasi va oliy matematika, matematik statistikaning qonun va qoidalari, tajribalarni matematik rejalashtirish hamda tenzometriya usullari va mavjud me'yoriy hujjatlar (ГОСТ 20915-11, О'zDSt 3355.2018, О'zDSt 3193.2017, УзПД 63.03-98, ГОСТ 53056-2008) da keltirilgan usullar qo'llanilgan.

Ishning ilmiy yangiligi:

mashinaning konstruksiyasi pushtalarga ularning butun profili bo'yicha to'liq va bir tekis ishlov berish mezonlari asosida ishlab chiqilgan;

mashina ish organlarining konstruksiyalari va parametrlari ishlov beriladigan pushtalarning shakli va geometrik o'lchamlariga bog'liq ravishda tanlangan;

mashinaning o'qyoysimon panjalari bilan egatlar tubiga, rotatsion yumshatkichi bilan pushtalarning yonbag'irlariga hamda plankali g'altakmolalar bilan ularning tepa qismiga ishlov berish jarayonlarini ifodalaydigan analitik bog'lanishlar pushtalar tuprog'ining xususiyatlari hisobga olingan holda keltirib chiqarilgan va ular asosida ish organlarning parametrlari aniqlangan;

ish organlari parametrlarining maqbul qiymatlari agrotexnik va energetik mezonlar bo'yicha asoslangan;

mashina ish organlarining belgilangan ishlov berish chuqurligiga botishi va uning bir tekis saqlanishi mashinaning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofani o'zgartirish hisobiga ta'minlanishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pushtalar profilini buzmaganda holda ularga talab darajasida to'liq ishlov berishni ta'minlash uchun o'qyoysimon panjalar, rotatsion yumshatkichlar va plankali g'altakmolalar bilan jihozlangan mashina ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan (tayanch g'ildiraklar, o'qyoysimon panjalar, rotatsion yumshatkichlar va plankali g'altakmolalar bilan jihozlangan) mashina amaliyotda qo'llanganda ish unumining ortishi, mehnat, energiya va resurs sarflarining kamayishi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi analitik tadqiqotlarning nazariy mexanika va oliy matematikaning qonun va qoidalari asosida amalga oshirilganligi, tajribaviy tadqiqotlarning samarali usul va vositalardan foydalanib o'tkazilganligi, ularda olingan natijalarning bir-biriga mosligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, ishning samarasi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi hamda pushtalarga ekish oldidan ishlov beradigan mashina sinovlarining ijobiy natijalari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pushtalarga ekish oldidan ularning butun profili bo'yicha hajmiy ishlov beradigan mashina sifat va energetik ko'rsatkichlarining uning ish organlari parametrlariga bog'liqlik qonuniyatlarini ochib beradigan matematik modellar, analitik ifodalar va regressiya tenglamalari olinganligi hamda ulardan boshqa shunga o'xshash mashinalarni ishlab chiqish va ularga doir nazariy tadqiqotlarni o'tkazishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Ishlab chiqilgan mashina tajriba nusxasining yasalganligi, uning pushtalarga agrotexnika talablari bo'yicha ishlov berishi va begona o'tlarni to'liq yo'qotishni ta'minlashi hamda ish unumining 1,25 martagacha oshganligi tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pushtalarga hajmiy ishlov beradigan mashina ishlab chiqishning ilmiy-texnik yechimlari bo'yicha olingan natijalar asosida:

pushtalarga ekish oldidan ularning butun profili bo'yicha to'liq va bir tekis ishlov beradigan mashina va uning ish organlari konstruksiyalariga O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining ixtiro va foydali modellarga patentlari olingan («Pushta va jo'yaklarga ishlov beradigan qurilma», № IAP 05829-2019 y. va № FAP 01071-2016 y, «Rotatsion yumshatkich», № FAP 00888-2014 y.). Natijada pushtalarga ularning butun profili bo'yicha hajmiy ishlov beradigan mashina ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

pushtalarga ekish oldidan ishlov berish texnologik jarayoni bajarilishining sifat ko'rsatkichlarini baholashga dastlabki talablar va mashina konstruksiyasini loyihalashga texnik topshiriq ishlab chiqilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 5 apreldagi 07/24-04/1940-son ma'lumotnomasi). Natijada pushtalarga ekish oldidan to'liq ishlov beradigan mashina konstruksiyasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

pushtalarga ekish oldidan hajmiy ishlov berish uchun ishlab chiqilgan

mashinaning tajriba nusxalari Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti tajriba xo‘jaligi, Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumani, Andijon viloyati Andijon va Izboskan tumanlari, Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani fermer xo‘jaliklariga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022 yil 5 apreldagi 07/24-04/1940-son ma‘lumotnomasi). Bunda pushtalarga ishlov berishga yonilg‘i sarfi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlari, mos ravishda, 1,56 marta va 54,15 foizga kamaygan;

ishlab chiqilgan pushtalarga hajmiy ishlov beradigan mashinaning sanoat nusxalarini ishlab chiqish va tayyorlash uchun loyiha-konstruktorlik hujjatlari «BMKB-Agromash» AJda loyihalash jarayoniga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022 yil 5 apreldagi 07/24-04/1940-son ma‘lumotnomasi). Natijada asoslangan parametrlarga ega pushtalarga ekish oldidan ishlov beradigan mashinani sanoat usulida ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari, jumladan, 9 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining 2 ta foydali modelga va 1 ta ixtiroga patentlari olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, yettita bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 196 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprotatsiyasi natijalari, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Muammoning qo‘yilishi. Tadqiqot maqsadi va vazifalari**» deb nomlangan birinchi bobida qishloq xo‘jaligi ekinlarini pushtalarda yetishtirishning afzalliklari, pushtalarga ishlov berishda qo‘llaniladigan mashina va qurilmalar, ish organlari hamda ular bo‘yicha respublika va xorijda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil etilgan hamda tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

O‘tkazilgan tahlillarning ko‘rsatishicha, pushtalarga ishlov berishda qo‘llaniladigan mavjud mashinalar, qurilmalar va ish organlari ularning butun profili bo‘yicha to‘liq va bir tekis ishlov berishni ta‘minlamaydi. Bu esa pushtalarni begona o‘tlar bosib ketishi va tuproqdagi namning yo‘qotilishiga olib keladi. Bundan

tashqari mavjud mashinalar qo'llanilganda pushtalarning qisman buzilishi va ular balandligining sezilarli darajada kamayishi kuzatiladi. Natijada urug'larning bir tekis unib chiqishi, o'simlikning rivojlanishi va hosildorligiga putur yetadi. Shu bois kuzda olingan pushtalarga bahorda ekish oldidan ularning butun profili bo'yicha to'liq va bir tekis ishlov beradigan mashina ishlab chiqish va uning ish organlarining kam energiya sarflagan holda yuqori ish sifatini ta'minlaydigan parametrlarini asoslash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Dissertatsiyaning «**Pushtalar tuprog'ining fizik-mexanik xossalari va ularga ishlov berishning texnologik asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobida pushta olingan dalalarning holati va ular tuprog'ining fizik-mexanik xossalari va pushtalar o'lchamlarini o'rganishga oid ma'lumotlar hamda pushtalarga ekish oldidan hajmiy ishlov beradigan mashinaga qo'yiladigan agrotexnika talablari va uning konstruktiv sxemasini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz pushtalarga ishlov berish davrida ular pushtalari tuproqlarining namligi 0-5, 5-10 va 10-20 cm qatlamlarda, mos ravishda, 12,23-14,91, 16,30-17,54 va 18,37-19,70 % oralig'ida, qattiqligi 0,53-0,75, 0,80-0,97 va 0,99-1,13 MPa oralig'ida, zichligi 1,16-1,20, 1,18-1,24 va 1,29-1,35 g/cm³ oralig'ida, egatda bu ko'rsatkichlar mos ravishda, 15,70-17,02, 17,11-18,23 va 18,94-20,11 %, 0,65-0,84, 0,94-1,13 va 1,17-1,36 MPa, 1,22-1,25, 1,40-1,45 va 1,46-1,50 g/cm³ oralig'ida bo'lishini, pushtalar balandligi kuzda olingan paytidagiga nisbatan bahorgi ishlov berish davriga kelib o'rtacha 3,65-6,70 cm ga pasayishi va yonbag'irlarining gorizontga nisbatan qiyalik burchagi o'rtacha 6-8° kamayishini, ishlov berishdan oldin ularning begona o't bosganlik darajasi o'rtacha 29,7-50,3 dona/m² ni tashkil etishini ko'rsatdi.

Pushtalarga ekish oldidan ishlov berish tuproqdagi namni saqlash uchun ular yuzasida mayin tuproq qatlamini hosil qilish, unib chiqayotgan begona o'tlar va qatqaloqni yo'qotish hamda pushta tepasini urug' ekishga tayyorlash maqsadida o'tkazilishini hisobga olgan holda pushtalarga ekish oldidan hajmiy ishlov beradigan mashinaga ko'yiladigan agrotexnika talablari qo'yidagicha shakllantirildi:


mashina daladan bir o'tishda pushtalarning egatlari, yonbag'irlari hamda tepasiga ishlov berib ketishi va bunda pushtalar tepasi va yonbag'irlari

4-6 cm, egatlarining tubi esa 8-12 cm chuqurlikda yumshatilishi lozim;

maqbul namlikdagi (16-18 % oralig'ida) pushtalarga ishlov berilganda yumshatilgan qatlamda o'lchami 25 mm gacha bo'lgan tuproq fraksiyalarining miqdori 80 % dan kam bo'lmasligi kerak;

unib chiqayotgan begona o'tlarning kamida 95 % yo'qotilishi lozim.

O'tkazilgan tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining № IAP 05829 raqamli ixtiroga hamda № FAP 01071 va № FAP 00888 raqamli foydali modellarga patentlari bilan himoyalangan, pushtalarga ekish oldidan ularning butun profili bo'yicha hajmiy ishlov beradigan mashinaning konstruktiv sxemasi ishlab chiqildi. Mashina osish qurilmasi bilan jihozlangan rama, tayanch g'ildiraklar, pushtalarning egatlari, yonbag'irlari va tepalariga ishlov beradigan ish organlaridan



- 1 – rama; 2 – osish qurilmasi; 3 – tayanch g‘ildirak;
 4 – o‘qyoysimon panja; 5, 9 – tortqi;
 6 – rotatsion yumshatkich; 7, 10 – prujina;
 8 – yo‘naltirgich; 11 – plankali g‘altakmola

1-rasm. Pushtalarga hajmiy ishlov beradigan mashinaning konstruktiv sxemasi

Dissertatsiyaning «Pushtalarga hajmiy ishlov beradigan mashina o‘qyoysimon panjasining parametrlarini asoslash» deb nomlangan uchinchi bobida mashina o‘qyoysimon panjasining parametrlarini asoslashga doir nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Nazariy tadqiqotlarda o‘qyoysimon panja qanotlarining uvalash burchagi β quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlandi:

$$\beta = \arcsin \left\{ \left\{ \sqrt{\sin^2(\varphi_1 + \varphi_2) + \left[2 + \frac{1}{2} \cos(\varphi_1 + \varphi_2) \right] [1 + \cos(\varphi_1 + \varphi_2)]} - \sin(\varphi_1 + \varphi_2) \right\} : \left[2 + \frac{1}{2} \cos(\varphi_1 + \varphi_2) \right] \right\}, \quad (1)$$

bunda φ_1, φ_2 – mos ravishda, tuproqning tashqi (po‘latga) va ichki (tuproqqa) ishqalanish burchaklari, $^\circ$.

(1) shart bajarilganda tuproqning o‘qyoysimon panja qanotlarining ta’siri ostida parchalanish qadami minimal qiymatga ega bo‘ladi va buning natijasida

tashkil topgan (1-rasm). Bunda pushtalarning egatlari pushtalarga nisbatan yuqori qattiqlik va zichlikka ega ekanligi hamda ular traktor g‘ildiraklari tomonidan zichlanishi sababli chuqurroq yumshatilishini hisobga olgan holda ularga ishlov beradigan ish organlari o‘qyoysimon panja ko‘rinishida, pushtalar yonbag‘irlariga ularning dastlabki holatini saqlagan holda ishlov berilishini ta’minlash uchun ularga ishlov beradigan ish organlari chap va o‘ng plankali konussimon g‘altakmolalardan tashkil topgan rotatsion yumshatkich ko‘rinishida hamda pushtalarning tepalariga urug‘ ekilishini hisobga olingan holda ularga ishlov beradigan ish organlari plankali g‘altakmolalar ko‘rinishida ishlandi.

Ishlab chiqilgan mashinaning o‘qyoysimon panjalari ramaga mahkam (qo‘zg‘almas), rotatsion yumshatkichlari va plankali g‘altakmolalari esa tortqilar vositasida sharnirli ulangan.

tuproqning kam energiya sarflagan holda sifatli yumshatilishi (uvalanishi) ta'minlanadi.

$\varphi_1=25-35^\circ$ va $\varphi_2=35-45^\circ$ qabul qilinib, (1) ifoda bo'yicha hisoblashlar o'qyoysimon panja qanotlarining uvalash burchagi $\beta=23-29^\circ$ oralig'ida bo'lishi lozimligini ko'rsatdi.

O'qyoysimon panja qanotlarining ochilish burchagi 2γ ni o'simlik qoldiqlari va begona o'tlar ularning tig'lari bo'ylab sirpanishi ta'minlanishi shartidan aniqlandi va qo'yidagi ifoda olindi

$$2\gamma \leq 90^\circ - \max(\varphi_n, \varphi_m), \quad (2)$$

bunda φ_n, φ_m – mos ravishda, o'simlik qoldiqlari (begona o'tlar)ning metall va tuproqqa ishqalanish burchaklari, $^\circ$.

O'qyoysimon panjaning qanotlari va tig'lariga tuproq yopishmaganda $\varphi_n=18-20^\circ$, yopishib qolgan bo'lsa $\varphi_m=23-26^\circ$. Shulardan kelib chiqib, (2) ifoda bo'yicha $2\gamma = 64-70^\circ$ bo'lishi lozimligini aniqlaymiz.


O'qyoysimon panjaning qamrash kengligini quyidagi ifoda orqali aniqlash mumkin:

$$B_y \geq C + 2\Delta, \quad (3)$$

bunda C – mashina rotatsion yumshatkichining o'ng va chap g'altakmolalari orasida ishlov berilmasdan qoladigan zonaning kengligi, m; Δ – rotatsion yumshatkichning o'qyoysimon panjaga nisbatan tebranishlarini hisobga oluvchi kattalik, m.

Ishlab chiqilgan konstruksiyada $C=0,1$ m va $\Delta=0,02$ m. Bu qiymatlarni (3) ifodaga qo'yib o'qyoysimon panjaning qamrash kengligi kamida 14 cm bo'lishi lozimligi aniqlandi.

Pushtalar egatlarining tubiga ishlov berilganda tuproqning o'qyoysimon panja



2-rasm. Pushtalar egatlari tubida o'qyoysimon panja tomonidan yumshatilgan qatlarning ko'ndalang profili

ta'siri ostidagi deformatsiyasi ularning yonbag'irlariga ham tarqaladi va o'qyoysimon panja tomonidan ishlov berilgan qatlarning ko'ndalang profili 2-rasmda keltirilgan ko'rinishga ega bo'ladi. Buni hisobga olganda o'qyoysimon panjaning tortishga qarshiligini aniqlash uchun quyidagi ifoda olindi

$$R_y = B_y \left\{ \frac{Tt_\tau}{\sin \gamma} + [\tau_k] \frac{h \left[1 + \frac{\cos \psi_\varepsilon \sin \varepsilon_\varepsilon}{2 \sin(\psi_\varepsilon - \varepsilon_\varepsilon)} \right]}{\cos \frac{1}{2}(\beta + \varphi_1 + \varphi_2)} \left[\sin \frac{1}{2}(\beta + \varphi_1 + \varphi_2) + tg \varphi_1 \cos \frac{1}{2}(\beta - \varphi_1 - \varphi_2) \cos \beta \right] \right\} + hB_y \rho \times$$


$$\times \left\{ l_y g \frac{\sin \beta + tg \varphi_1 (\cos \gamma ctg \gamma + \sin \gamma \cos \beta)}{\cos \beta - tg \varphi_1 \sin \gamma \sin \beta} + V^2 \frac{\sin^2 \gamma [\sin \beta + tg \varphi_1 \sin \gamma (ctg^2 \gamma + \cos \beta)]}{ctg \beta - tg \varphi_1 \sin \gamma} \right\} \times$$

$$\times \left[1 + \frac{(0,5B_y + hctg \psi_\varepsilon)^2 \sin \varepsilon_\varepsilon \sin \psi_\varepsilon}{(B_y + hctg \psi_\varepsilon) h \sin(\psi_\varepsilon - \varepsilon_\varepsilon)} \right] \left(1 + \frac{W}{100} \right), \quad (4)$$

bunda T – tuproqning qattiqligi, Pa; t_T – ish organi tig‘ining qalinligi, m; $[\tau_k]$ – siljish tekisligi bo‘yicha hosil bo‘ladigan urinma kuchlanishning chegaraviy qiymati, Pa; h – ishlov berish chuqurligi, m; l_y – o‘qyoysimon panja qanotining kengligi, m; ρ – tuproqning zichligi, kg/m³; g – erkin tushish tezlanishi, m/s²; W – tuproqning namligi, %, $\psi_{\bar{\epsilon}}$ – tuproqning yonbosh sinish burchagi, °; $\epsilon_{\bar{\epsilon}}$ – pushta yonbag‘rining gorizontga nisbatan qiyalik burchagi, °.

$B_y=0,14$ m, $\gamma=35^\circ$, $\beta=30^\circ$, $T=0,9 \cdot 10^6$ Pa, $t_T=0,001$ m, $h=0,1$ m; $[\tau_k]=1,7 \cdot 10^4$ Pa, $l_y=0,05$ m, $\rho=1,38$ kg/m³, $W=17,2\%$, $\varphi_1=30^\circ$, $\varphi_2=40^\circ$, $\psi_{\bar{\epsilon}}=60^\circ$ va $\epsilon_{\bar{\epsilon}}=32^\circ$ qabul qilinib, (4) ifoda bo‘yicha o‘tkazilgan hisoblar 1,7-2,5 m/s tezlik oralig‘ida $R_y=0,64-0,68$ kN ni tashkil etishini ko‘rsatdi.

Tajribalarning natijalari 3-rasmda keltirilgan. Ulardan ko‘rinib turibdiki, tuproqning uvalanish darajasi, ya‘ni o‘lchami 25 mm dan kichik bo‘lgan fraktsiyalar miqdori o‘qyoysimon panjaning uvalash burchagiga bog‘liq ravishda qavariq parabola ko‘rinishida o‘zgargan va burchak 25-30° oralig‘ida bo‘lganda tuproq fraktsiyalarining o‘lchamlari minimal qiymatga ega bo‘lgan.



1, 2 – mos ravishda, agregatning harakat tezligi 5,6 va 9,1 km/h bo‘lganda

3-rasm. Tuproqning uvalanish darajasi (a) va tortishga qarshiligi (b) ning o‘qyoysimon panjaning uvalash (β) hamda qanotlarining ochilish (2γ) burchaklariga bog‘liq ravishda o‘zgarishi

Tajribalar natijalaridan ko‘rinib turibdiki, o‘qyoysimon panja qanotlarining ochilish burchagi 65-70° bo‘lganda pushta egatlari tuprog‘ining kam energiya sarflangan holda talablar darajasida uvalanishi ta‘minlangan. Qamrash kengligi turlicha bo‘lgan o‘qyoysimon panjalarning uning ish ko‘rsatkichlariga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar o‘qyoysimon panjaning qamrash kengligi 14 cm dan katta bo‘lganda pushtalar yonbag‘irlari ortiqcha darajada buzilishini va

buning natijasida pushta tuprog'ining egatga o'pirilib tushishiga olib kelishini ko'rsatdi.

O'qyoysimon panjaning nazariy va bir omilli eksperimentlarda o'rganilgan parametrlarining maqbul qiymatlarini aniqlash uchun Hartli-4 (Ha₄) rejasi bo'yicha ko'p omilli eksperimentlar o'tkazildi. Bunda o'qyoysimon panjaning uvalash (X_1) va qanotlarining ochilish burchaklari (X_2), qamrash kengligi (X_3) va agregatning harakat tezligi (X_4) ning tuproqning uvalanish darajasi hamda o'qyoysimon panjaning tortishga qarshiligiga ta'siri o'rganildi va ularni adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

$$\begin{aligned} &\text{tuproqning uvalanish darajasi bo'yicha (\%)} \\ Y_1 = &81,392 - 1,021X_1 - 2,465X_2 - 0,410X_3 + 1,417X_4 - 4,289X_1^2 - \\ &- 0,347X_1X_2 - 0,666X_1X_3 + 0,347X_1X_4 - 0,665X_2X_3 - \\ &- 0,456X_3^2 + 0,663X_3X_4 - 0,946X_4^2; \end{aligned} \quad (5)$$

$$\begin{aligned} &\text{o'qyoysimon panjaning tortishga qarshiligi bo'yicha (kN)} \\ Y_2 = &0,533 + 0,043X_1 + 0,071X_2 + 0,035X_3 + 0,072X_4 + 0,040X_1^2 + \\ &+ 0,006X_1X_2 + 0,008X_1X_3 - 0,007X_1X_4 - 0,022X_2^2 + \\ &+ 0,063X_3^2 + 0,000X_3X_4 + 0,018X_4^2. \end{aligned} \quad (6)$$

(5) va (6) regressiya tenglamalarining yechimlari 5,6-9,1 km/h harakat tezliklarida kam energiya sarflagan holda tuproqning talab darajasidagi uvalanishini ta'minlash uchun o'qyoysimon panjaning uvalash burchagi 23-25° oralig'ida, qanotlarining ochilish burchagi 64-66° oralig'ida va qamrash kengligi 13-14 cm bo'lishi lozimligini ko'rsatdi.


Dissertatsiyaning «**Pushtalarga hajmiy ishlov beradigan mashina rotatsion yumshatkichi parametrlarini asoslash**» deb nomlangan to'rtinchi bobida ishlab chiqilgan mashina rotatsion yumshatkichining maqbul qiymatlarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Mashinaning rotatsion yumshatkichi (4-rasm) chap va o'ng plankali konussimon g'altakmolalar (keyingi o'rinlarda g'altakmolalar), ular o'rnatiladigan o'qlar, g'altakmolalarning katta va kichik diametrli asoslari (disklari), plankalar, muftalar, ular biriktiriladigan kronshteynlardan tashkil topgan bo'lib, ish jarayonida qo'shni pushtalar yonbag'irlariga 4-6 cm chuqurlikda ishlov berish uchun mo'ljallangan.

Rotatsion yumshatkichning parametrlarini asoslashda birinchi navbatda nazariy tadqiqotlar o'tkazildi. Rotatsion yumshatkich g'altakmolalari plankalarining uzunligi l_{ni} pushtalarning yonbag'irlariga to'liq ishlov berilishi ta'minlanishi shartidan kelib chiqqan holda aniqlandi va quyidagi ifodaga ega bo'lindi

$$l_{ni} \geq \frac{h_{y_{pm}} + 3\sigma}{\sin \varepsilon} - \frac{0,5B_y + hctg\psi_{\bar{\varepsilon}}}{\cos \varepsilon}. \quad (7)$$

bunda $h_{y_{pm}}$ – pushtalarning ularga bahorda ishlov berish davridagi o'rtacha balandligi, m; σ – pushtalar balandligining o'rtacha kvadratik chetlanishi, m; ε – rotatsion yumshatkich g'altakmolalari plankalarining ularning aylanish o'qiga nisbatan o'rnatilish burchagi (odatda $\varepsilon = \varepsilon_{\bar{\varepsilon}}$ qabul qilinadi), °.



- 1, 2 – chap va o‘ng plankali konussimon g‘altakmolalar; 3, 4 – g‘altakmolalar o‘rnatiladigan o‘qlar; 5 – kichik diametrli asos; 6 – katta diametrli asos; 7 – plankalar; 8 – muftalar; 9 – muftalar biriktiriladigan kronshteyn

4-rasm. Rotatsion yumshatkichning sxemasi va parametrlari

Rotatsion yumshatkich g‘altakmolalarining o‘rtacha diametri D_z u oldida uchraydigan kesaklarni bosib o‘tib ketishi kerakligi shartidan olingan quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlandi:

$$D_z \geq \frac{[1 + \cos(\varphi_1 + \varphi_2)] d_k + 2h_m}{1 - \cos(\varphi_1 + \varphi_2)}, \quad (8)$$

bunda d_k – g‘altakmolaning yo‘lida uchraydigan kesaklarning diametri, m; h_m – pushtalar yonbag‘irlariga ishlov berish chuqurligi, m.

D_z ning ma’lum qiymati asosida g‘altakmolaning kichik va katta diametrlari aniqlandi

$$d = \frac{[1 + \cos(\varphi_1 + \varphi_2)] d_k + 2h_m}{1 - \cos(\varphi_1 + \varphi_2)} - l_{n1} \sin \varepsilon \quad (9)$$

va

$$D = \frac{[1 + \cos(\varphi_1 + \varphi_2)] d_k + 2h_m}{1 - \cos(\varphi_1 + \varphi_2)} + l_{n1} \sin \varepsilon. \quad (10)$$

Rotatsion yumshatkich g‘altakmolalarining plankalari soni ish jarayonida ular ishonchli aylanib ishlashlari ta’minlanishi lozimligidan kelib chiqib aniqlandi va quyidagi ifodaga ega bo‘lindi

$$n \geq 360^\circ : \left(\arccos \frac{D_z + l_{ni} \sin \varepsilon - 2h_m}{D_z + l_{ni} \sin \varepsilon} \right), \quad (11)$$

Rotatsion yumshatkichga beriladigan tik yuklanish Q_p u belgilangan chuqurlikka botib ishlashi shartidan kelib chiqqan holda aniqlandi va quyidagi ifoda keltirib chiqarildi

$$Q_p = 2q_{01}(1 + K_v V^2) \left\{ h_m + \left[h_m - R_y \left(1 - \cos \frac{360^\circ}{n} \right) \right] \cos \frac{360^\circ}{n} \right\} l_{ni} t_{ni} \cos \varepsilon, \quad (12)$$

bunda q_{01} – tuproqning statik hajmiy ezilish koeffitsiyenti; K_v – proporsionallik koeffitsiyenti, s^2/m^2 ; V – agregatning harakat tezligi, m/c; t_{ni} – g‘altakmolalar plankalarining qalinligi, m.

Rotatsion yumshatkichga tik yuklanish uning bosim prujinasi orqali beriladi. 5-rasmda keltirilgan sxemaga binoan bosim prujinasi tomonidan beriladigan kuchni quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlash mumkin

$$Q_n = \frac{(Q_p - m_p g) l_m}{l_m + l_h}, \quad (13)$$

bunda m_p – rotatsion yumshatkichning massasi, kg; l_m – rotatsion yumshatkich tortqisining o‘qyoysimon panja ustuniga ulangan nuqtasidan uning aylanish o‘qigacha bo‘lgan bo‘ylama masofa, m; l_h – rotatsion yumshatkich aylanish o‘qidan bosim prujinasi tomonidan beriladigan tik yuklanish qo‘yilgan nuqttagacha bo‘lgan masofa, m.

$h_{ypm}=0,21$ m, $\sigma = \pm 0,017$ m, $B_y=0,14$ m, $K_v=0,08$ s²/m², $d_k=0,05$ m, $h_m=0,05$ m, $q_0=3 \cdot 10^6$ N/m³, $t_{ni}=0,006$ m, $m_p=20$ kg, $l_m=0,58$ m, $l_h=0,25$ m va $\varepsilon=32^\circ$ qabul qilinib, (7)-(13) ifodalar bo‘yicha o‘tkazilgan hisoblar g‘altakmolalar plankalarining uzunligi kamida 340 mm, ularning kichik, o‘rta va katta diametrlari, mos ravishda, kamida 100, 230 va 400 mm, plankalari soni kamida 10 ta bo‘lishi hamda 1,7-2,5 m/s ish tezliklarida rotatsion yumshatkichga beriladigan tik yuklanish 0,85-1,03 kN va unga bosim prujinasi tomonidan beriladigan tik yuklanish 0,46-0,59 kN oraliq‘ida bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi.

O‘qyoysimon panja va rotatsion yumshatkich orasidagi bo‘ylama masofa o‘qyoysimon panja ishchi sirtidan tushayotgan tuproq bo‘laklariga rotatsion yumshatkich g‘altakmolalari ular pushtalar egatining tubi yoki yonbag‘irlariga kelib tushgandan keyin ta’sir ko‘rsatishi lozimligi shartidan aniqlandi va quyidagi ifoda olindi

$$\begin{aligned} L \geq & \frac{V}{g \cos \varphi} \left\{ 1 - \frac{\sin \arctg(tg \beta \sin \gamma)}{\cos \varphi} \sin[\arctg(tg \beta \sin \gamma) + \varphi] \right\} \times \\ & \times \left\{ V \sin \arctg(tg \beta \sin \gamma) \cos[\arctg(tg \beta \sin \gamma) + \varphi] + \right. \\ & \left. + \sqrt{V^2 \sin^2 \beta \cos^2 [\arctg(tg \beta \sin \gamma) + \varphi] + 2gh \cos^2 \varphi} \right\} + \\ & + \frac{1}{2} \sqrt{D^2 - d^2} + l_y \cos \arctg(tg \beta \sin \gamma). \end{aligned} \quad (14)$$

$h=0,10$ m, $\beta=25^\circ$, $\varphi=25^\circ$, $V=2,0$ m/c, $g=9,81$ m/s², $d=0,1$ m, $D=0,4$ m va $l_y=0,05$ m ekanligi hisobga olinsa, (14) ifodadan o‘qyoysimon panja va rotatsion yumshatkich orasidagi bo‘ylama masofa kamida 57,4 cm bo‘lishi lozimligi kelib chiqadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlarimiz pushta yonbag‘irlariga sifatli ishlov berilishini ta’minlash uchun rotatsion yumshatkich bilan o‘qyoysimon panjani bog‘lovchi tortqi (5-rasm) gorizontal yoki pastga qiyalatib o‘rnatilgan bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi.

Tajribalarni o‘tkazishda baholash mezonini sifatida begona o‘tlarning yo‘qotilish darajasi, ishlov berish chuqurligi va tuproqning uvalanish darajasi qabul qilindi hamda tajribalar agregatning 5,6 va 9,1 km/h harakat tezliklarida o‘tkazildi. Olingan natijalar quyidagi jadval va 6-rasmda keltirilgan. Ular bo‘yicha quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

– rotatsion yumshatkich g‘altakmolalarining kichik diametri 150-200 mm, katta diametri 400-450 mm oralig‘ida bo‘lganda pushtalar yonbag‘irlarining belgilangan chuqurlikka yumshatilishi, tuproqning uvalanish darajasi va begona o‘tlarning yo‘qotilishi talab darajasida bo‘lishi ta’minlangan;

– rotatsion yumshatkich g‘altakmolalari plankalarining balandligi 35 mm va undan ortiq bo‘lganda pushta yonbag‘irlarida begona o‘tlarning yo‘qotilishi va tuproqning uvalanish darajalari hamda tuproqqa ishlov berish chuqurligi talab darajasida bo‘lishi ta’minlangan;


– rotatsion yumshatkichning g‘altakmolalari 14 dona dan plankalarga ega bo‘lganda hamda ular harakat yo‘nalishiga nisbatan 5-10° burchak ostida o‘rnatilganda pushtalar yonbag‘irlariga talab darajasida ishlov berilgan;

– rotatsion yumshatkichga beriladigan tik yuklanish 0,45-0,55 kN oralig‘ida bo‘lganda ish ko‘rsatkichlari talablar darajasida bo‘lgan.


Rotatsion yumshatkich g‘altakmolalari kichik va katta diametrlarining uning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri

Rotatsion yumshatkich g‘altakmolalarining diametrlari, mm		Begona o‘tlarni yo‘qotish darajasi, %	Ishlov berish chuqurligi, cm		Tuproqning uvalanish sifati, %		
					fraktsiyalar o‘lchami, mm		
kichik	katta		h_{yp}	$\pm\sigma$	>50	50-25	<25
